QASHQADARYO VILOYATI
G‘UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy.Tel:75.552-13-60

2022 - yil 24 - sentabr 376-4-56-Q/22 G‘uzor tuman hokimligi

Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 24-maydagi “Viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish to‘g‘risida”gi 372-4-0-Q/22-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli, Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 24-maydagi 372-4-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 24-maydagi 372-4-0-Q/22-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi (Zokirov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (Tursunov) tuman yo‘llardan foydalanish UK (Rustamov) bilan birgalikda tuman hududidagi mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo‘llari, tuman markazlaridagi serqatnov ko‘chalarda joylashgan maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari hududlarida harakat xavfsizligini tartibga olish maqsadida:

11 ta umumta’lim maktablari uchun yo‘llarga o‘rnatilgan tezlikni cheklovchi

3.24 “50 (ellik) yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari 1-ilovaga muvofiq 3.24 “30 (o‘ttiz) yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilariga almashtirilsin.

tuman hududidagi davlat ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarida joylashgan 2 ta umumta’lim maktablari uchun yo‘llarga 3.24 “30 (o‘ttiz) yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari 2-ilovaga muvofiq o‘rnatilsin.

3. Tuman hududidagi transport harakat jadalligi yuqori va tezlik oqibatida yo‘l-transport hodisalari ko‘plab kuzatilgan avtomobil yo‘llining ayrim uchastkalarida 3-ilovaga muvofiq 100 km/soat tezlikdan 70 km/soat tezlikga o‘zgartirilayotganligi va 3.24 “70 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari o‘rnatilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hududidagi avtomobil yo‘llarida yo‘l belgilarini o‘rnatish bilan bog‘liq harajatlar avtomobil yo‘llarining tegishligigi bo‘yicha viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi hamda tuman hokimligi tomonidan ushbu maqsadda ajratiladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Zokirov hamda tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Z.Tursunov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Suyunov**

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 24 sentabrdagi
376-4-56-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi maktablar olididan mavjud 3.24 “50 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarni 3.24 “30 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilariga almashtirish bo‘yicha

JADVALI

t/r	Maktab tartib raqami	Avtomobil yo‘li, ko‘cha va mahalla nomi	Ma’sul tashkilotlar
G‘uzor tumani			
1.	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Eskibog‘ MFY ichki yo‘li	Tuman hokimligi
2.	4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	4N-292e “M39 5 km” “Avg‘onbog‘” MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
3.	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Gulshan MFY ichki yo‘li	Tuman hokimligi
4.	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	A-378 “Samarqand-G‘uzor” Yarg‘unchi MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
5.	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	4K-349 “G‘uzor aylanma yo‘li” Chanoq MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
6.	28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	A-378 “Samarqand-G‘uzor” Qushtepa MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
7.	34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	4K-349 “G‘uzor aylanma yo‘li” Navruz MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
8.	47-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	A-380 “G‘uzor-Beynov” Toshguzar MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
9.	51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	M-39 “Almati-Beshkek” Yangiobod MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
10.	61-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	4R-79 “Qarshi-Shaxrisabz” 26 km Zarbdor MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
11.	74-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	A-380 “G‘uzor-Beynov” Mustaqillik MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 24 sentabrdagi
376-4-56-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududidagi maktablar olididan yangi 3.24 “30 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarni o‘rnatish

JADVALI

t/r	Maktab tartib raqami	Avtomobil yo‘li yoki ko‘cha nomi	Ma’sul tashkilotlar
G‘uzor tumani			
1.	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	4R-79 “Qarshi-Shahrisabz” 26 km Qovchin MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi
2.	45-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	4R-79 “Qarshi-Shahrisabz” 26 km Zarbdor MFY	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 24 sentabrdagi
376-4-56-Q/22-son qaroriga
3-ilova

Tuman hududida tezlik oqibatida ko‘plab yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘layotgan avtomobil yo‘llarida tezlikni 70 kilometr/soatgacha cheklash belgilari o‘rnatilish joylari

JADVALI

t/r	Avtomobil yo‘li yoki ko‘cha nomi	Kilometri oralig‘i	Ma’sul tashkilotlar
G‘uzor tumani			
1.	M-39 “Almata-Toshkent-Shahrisabz-Termiz”	1252-1258 kilometr oralig‘i	Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi